

**MALAKAVIY AMALIYOT ASOSIDA TALABALARDA IJODKORLIK  
QOBILIYATINI RIVONLANTIRISH****Erkinxojiyeva.K. Sh**

O'zMPU "Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (texnologik ta'lim)" 1-bosqich magistranti

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalarida talabalar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda malakaviy amaliyotning o'rnini va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Shuningdek, amaliyot jarayonida talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni hal qilish, innovatsion yondashuvlarni shakllantirish imkoniyatlari yoritiladi. Maqolada ijodkorlikni rivojlantirishning samarali metodlari, pedagogik shart-sharoitlar va amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

**Kalit so'zlar:** malakaviy amaliyot, ijodkorlik qobiliyati, innovatsion yondashuv, mustaqil fikrlash, ta'lim jarayoni, pedagogik texnologiyalar, kasbiy kompetensiya.

**Kirish.** Bugungi kunda ta'lim tizimi oldida turgan asosiy vazifalardan biri - raqobatbardosh, ijodkor va innovatsion fikrlay oladigan mutaxassislarini tayyorlashdir. Ijodkorlik – bu shaxsning yangilik yaratish, mavjud bilimlarni yangi sharoitda qo'llash va muammolarga noodatiy yechim topish qobiliyatidir. Oliy ta'lim jarayonida talabalarning ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish ko'p jihatdan ularning amaliy faoliyat bilan qanchalik shug'ullanishiga bog'liq. Shu nuqtai nazardan, malakaviy amaliyot talabalar uchun muhim pedagogik vosita hisoblanadi. Malakaviy amaliyot orqali talabalar nazariy bilimlarini real muhitda sinab ko'radilar, kasbiy faoliyatga moslashadilar va mustaqil qaror qabul qilishni o'rganadilar. Aynan shu jarayon ijodkorlikning rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Mazkur tadqiqotning maqsadi – malakaviy amaliyot asosida talabalar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishning samaradorligini aniqlash va uni takomillashtirish yo'llarini ishlab chiqishdan iborat.

**Metodologiya.** Talabalarda ijodiy faoliyatini shakllantirish shart-sharoitlari deganda, avvalo ana shu shart-sharoitlarning paydo bo'lishi, amalga oshishi hamda rivojlanishi jarayoni tushiniladi. Ular quyidagilardan iborat: Talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishda ularning bu borada egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalari. Ijodiy faoliyatni shakllantirishda nazariy bilimlar bilan amaliyotning aloqadorligi. Ijodiy faoliyatni shakllantirishga doir mashg'ulotlar evristika muammoli vaziyatlar yaratish. Talabalarning ijodiy faoliyatini shakllantirishga texnologik yondashuv va boshqalar.



**Muammoning o'rganilganlik darajasi.** Ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish masalalari pedagogika va psixologiya fanlarida keng o'rganilgan. Shuningdek, malakaviy amaliyotni tashkil etish bo'yicha ham qator ilmiy ishlar mavjud. Malakaviy amaliyotni tashkil etish asosida talabalarda ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirish muammolari va ilmiy-nazariy asoslari haqida Respublikamiz olimlari O'.Q.Tolipov, O.A.Qo'ysinov, Sh.Sharipov, T.Ismoilov, A.N.Mamatqulov, G.Ibragimova, I.M.Sirojiddinova va xorijlik olimlardan M.G.Yarshevskiy, De Bono, V.N. Drujinin, D.B.Bogoyavlenskaya, V.A.Kan-Kalik, N.V.Kuzmina, E.P.Torrens va boshqalar tadqiqotlar o'tkazganlar.

**Asosiy qism.** Ijodkorlik va qobiliyat tushunchalari o'rtasidagi bog'lanish juda kuchlidir. Qobiliyat, odatda, tug'ma yoki o'rganiladigan xususiyatlar sifatida qaraladi, ular shaxsning ma'lum bir faoliyat turini bajarishdagi muvaffaqiyatini ta'minlaydi. Ijodkorlik esa, aynan, bu qobiliyatlarning o'ziga xos shakli bo'lib, insonning yangi va noyob fikrlarni yaratish, yangilik kiritish, va yangi usullarni ishlab chiqish qobiliyatiga asoslanadi. Boshqacha qilib aytganda, qobiliyat — bu individning ijodkorlikni namoyon qilish imkoniyatini taqdim etuvchi asbob, ijodkorlik esa bu imkoniyatdan qanday foydalanishdir. Ijodkorlik shaxsning rivojlanishida asosiy rol o'ynaydi. Ijodkorlik o'z-o'zini anglashning, o'zligini yaratishning va dunyoqarashini kengaytirishning vositasi bo'lib xizmat qiladi. Pedagogik nuqtai nazardan, ijodkorlikni rivojlantirish shaxsning kognitiv, hissiy, va ijtimoiy jihatdan o'sishiga xizmat qiladi. Pedagogika nuqtayi nazaridan, ijodkorlikni rivojlantirish talabalarning faolligini oshirish va yangi o'qitish usullarini izlashda muhim ahamiyatga ega. Shaxsning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish uchun, o'qituvchi talabalarga yangi bilimlar va ko'nikmalarni o'rganish imkoniyatini berishi kerak. Bu, o'z navbatida, ularning yangi g'oyalar ishlab chiqish va mavjud bilimlarni innovatsion tarzda qo'llash qobiliyatini oshiradi. Ijodkorlikni rivojlantirishda talabalarning faol ishtiroki va o'zaro aloqasi, o'z navbatida, o'qitish jarayonining samaradorligini ta'minlaydi. Ijodkorlikning subyektiv va obyektiv ahamiyati, shubhasiz, uning shaxs va jamiyatga ta'sirini belgilaydi. Subyektiv ahamiyat, shaxsning o'z his-tuyg'ulari, fikrlarini va yaratgan g'oyalarini qanday baholashiga bog'liq bo'lsa, obyektiv ahamiyat jamiyatda ijodiy faollikni qo'llab-quvvatlash, yangi texnologiyalar va innovatsiyalarni yaratishda o'z aksini topadi. Shaxsning ijodkorligi jamiyatning rivojlanishida yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Ijodkorlik, insonning psixologik va fiziologik xususiyatlari, shuningdek, uning aqliy va hissiy holati bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu shaxsning o'zini ifoda etishining va rivojlanishining ajralmas qismi hisoblanadi. Pedagogik jihatdan, ijodkorlikni rivojlantirish talabalarning ma'naviy, kognitiv, va



## Learning and Sustainable Innovation

ijtimoiy jihatdan o'sishga yordam beradi, bu esa yangi bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirishga turtki bo'ladi. Ijodkorlikning subyektiv va obyektiv ahamiyati uning shaxs va jamiyat rivojlanishidagi markaziy rolini ta'minlaydi.

Ijodiy qobiliyatlarni aniqlashda, ijodkorlik o'quvchilarning ijodiy harakatlarni amalga oshirish qobiliyatida namoyon bo'lib, faoliyatning muayyan mahsulotida amalga oshiriladi. Ijodiy faoliyatni to'liq ongli ravishda bajarish uchun zarur bo'lgan mahorat, bu harakatlarni muntazam ravishda amalga oshirish va o'zboshimchalik bilan takrorlash qobiliyatini talab qiladi. Ko'nikmalar esa boshlang'ich bosqichda o'rganilgan bilimlarning keyinchalik amaliy foydalanish jarayonida, to'g'ri bajariladigan harakat shaklida namoyon bo'ladi.

Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, malakaviy amaliyot faqat bilimlarni mustahkamlash vositasi emas, balki ijodkorlikni rivojlantirishning samarali mexanizmidir. Tadqiqot natijalari boshqa ilmiy ishlarda keltirilgan xulosalar bilan hamohang bo'lib, amaliy faoliyatning ijodiy fikrlashga ijobiy ta'sirini tasdiqlaydi. Shuningdek, quyidagi pedagogik omillar muhimligi aniqlandi:

- erkin va ijodiy muhit yaratish
- talabalarni rag'batlantirish
- zamonaviy metodlardan foydalanish.

Agar amaliyot faqat kuzatuv shaklida tashkil etilsa, unda ijodkorlik yetarli darajada rivojlanmaydi. Shu sababli, talabalarni faol ishtirok etishga jalb qilish muhim hisoblanadi.

**Xulosa.** Mazkur tadqiqot asosida quyidagi xulosalarga kelindi: Malakaviy amaliyot talabalar ijodkorlik qobiliyatini rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi. Innovatsion pedagogik metodlar ijodkorlikni oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning amaliy faoliyatdagi faolligi ularning kasbiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Amaliy tavsiyalar:

- ✓ amaliyot jarayoniga loyiha metodini keng joriy etish.
- ✓ talabalarni mustaqil ishlashga yo'naltirish.
- ✓ mentorlik tizimini rivojlantirish.
- ✓ ijodiy topshiriqlar ulushini oshirish.

Shunday qilib, talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida nazariy va maxsus fanlar uchun asos bo'lishi mumkin va ushbu faoliyatning muayyan mahsulotida amalga oshirish bilan ijodiy harakatlarni amalga oshirishga imkon beradi.



**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- 1.Хайдаров С. Ўзбекистон тарихи фани дарслари самарадорлигини оширишда тасвирий санъат воситаларининг роли. "Science and Education" Scientific Journal September 2020/Volume 1 Issue 6. Page 174-179.
- 2.Yadgarova.S. Zamonaviy maktablar faoliyatini shakllantirish va rivojlantirish tendentsiyalari. Scientific Journal Impact Factor (SJIF) 2020: 4.804.951-957 b.
3. Tseneva M.A. Badiiy hunarmandchilik orqali pedagogik ta'lim yo'nalishi talabalarining ijodiy qobiliyatlarini shakllantirish modeli // Fundamental tadqiqotlar. - 2014. - No 9-4. – S.877-881.
4. Richardson C., Mishra P. (2018). Learning environments that support student creativity: Developing the SCALE. Thinking skills and creativity, 27, 45-54.